NUTQ MADANIYATI VA ADABIY TIL ME'YORLARI

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Nizomova Aziza Husniddin qizi

azizanizomova999@gmail.com

Ilmiy raxbar: Sh.O.Mamayoqubova

Email: mamayoqubovashahlo@gmail.com

Abstract: Speech is used in the processes of expression and exchange of ideas, language is a form of living as a separate type of social activity. Speech has an individual and unique character in each person. Culture is a certain level of historical development of society, human creative power and abilities. It is expressed in various aspects of people's lives and activities, as well as in the material and spiritual wealth they create. Speech and culture combine to create "speech culture". The culture of speech is a social phenomenon, it develops in an integral connection with the development of society, science and technology, cultural and literary life. In the development of speech culture, literature, art, radio, television and periodical press play a big role. Knowledge and cultural level of society members as he grows up, his speech becomes polished and refined, leading to the formation of a literary language. Literary language is a reworked and standardized language form of a particular national language, which serves the cultural needs of the people who speak this language and is understandable to all representatives of the dialect. Literary language is taken from dialects and processed, creating its own standards and criteria. Norms play an important role in the use of language, just as norms are important in any type of activity. It defines limits and possibilities when using language. This article talks about speech culture and norms of literary language.

Key words:speech, culture, literary language, norm, written, spoken, radio, television, nation, respect.

Аннотация: Речь используется в процессах выражения и обмена идеями, язык является формой жизнедеятельности как отдельный вид социальной деятельности. Речь имеет индивидуальный и неповторимый характер у каждого человека. Культура – это определенный уровень исторического развития общества, творческих сил и способностей человека. Оно выражается в различных сторонах жизни и деятельности людей, а также в создаваемых ими материальных и духовных богатствах. Речь и культура объединяются, чтобы создать «речевую культуру». Культура речи – явление социальное, она развивается в неразрывной связи с развитием общества, науки и техники, культурной и литературной жизни. В развитии речевой культуры большую роль играют литература, искусство, радио, телевидение и периодическая печать. Знания и культурный уровень членов общества по мере взросления его речи оттачиваются и утончаются, что приводит к формированию литературного языка. Литературный язык — это переработанная и стандартизированная языковая форма того или иного национального языка, обслуживающая культурные потребности народа, говорящего на этом языке, и понятная всем представителям диалекта. Литературный язык берется из диалектов и обрабатывается, создавая свои стандарты и критерии. Нормы играют важную роль в использовании языка, так же, как нормы важны в любом виде деятельности. Онопределяет пределы и возможности прииспользовании языка. В данной статье говорится о культуре речи и нормах литературного языка.

Ключевые слова: речь, культура, литературный язык, норма, письменное, устное, радио, телевидение, нация, уважение.

Annatotsiya: Nutq fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilinishi, tilning alohida ijtimoiy faoliyat turi sifatida yashash shakli. Nutq har bir shaxsda individual va o‘ziga xos xarakterga egadir. Madaniyat bu jamiyat, insonning ijodiy kuchi va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasidir. U kishilar hayoti

va faoliyatining turli koʻrinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma’naviy boyliklarda ifodalanadi. Nutq va madaniyat birlashib, "nutq madaniyati"ni yuzaga keltiradi. Nutq madaniyati ijtimoiy hodisa, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy hayot rivoji bilan uzviy bogliq holda taraqqiy etib boradi. Nutq madaniyatining rivojlanishida adabiyot, sanat, radio, televideniye va davriy matbuotning o'mi katta. Jamiyat a'zolarining bilim va madaniy saviyasi oʻsgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, adabiy tilni shakllanishiga olib keladi. Adabiy til - muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me’yorlashtirilgan, mazkur tilda soʻzlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli boʻlgan til shakli. Adabiy til shevalardan olinadi va qayta ishlanib, oʻz me'yor va mezonlari yaratiladi. Faoliyatining har bir turida me'yor muhim boʻlgandek, tildan foydalanishda ham me'yor muhim rol oʻynaydi. U tildan foydalanish paytida chegara va imkoniyatlarni belgilab beradi. Mazkur maqolada nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: nutq, madaniyat, adabiy til, me'yor, yozma, oʻgʻzaki, radio, televideniye, millat, hurmat.

Bilamizki, eng qadimgi davrlarda insonlar belgilar asosida gaplashishgan. Ular nutq soʻzlashni bilishmagan. Ammo vaqtlar oʻtishi bilan nutq paydo boʻladi. Nutq individual boʻladi. Ammo xalqning urf-odatlari, madaniy-ma'rifiy madaniyati, ijtimoiy -falsafiy va estetik dunyoqarashi kabi bir qancha omillar bilan nutq madaniyati shakllanadi. Nutq madaniyating rivojlanib, sayqallanib borishi natijasida butun bir millat uchun umumiy boʻlgan til adabiy til vujudga keladi. Adabiy til butun bir millatni bitta nutq madaniyati doirasida birlashtiradi. Uning oʻz me'yorlari mavjud. Bu me'yorlarga amal qilish har bir oʻz tilini hurmat qilgan inson uchun muhim. Bu millatning oʻziga boʻlgan hurmatini koʻrsatadi.

Nutqiy faoliyat kundalik faoliyatimizning tarkibiy qismidir. Nutq madaniyati kishilaming kundalik nutqiy faoliyati bilan aloqador. Adabiy tilning oʻzi nutq madaniyatini tashkil eta olmaydi. Adabiy tildan, uning madaniylashgan

vositalaridan nutqiy faoliyatda foydalanilgandagina adabiy til nutq madaniyati vositasiga aylanadi. Masalan, hozirgi zamon o'zbek adabiy talim-tarbiya ishlari olib boriladi, ilmiy va badiiy adabiyotlar nashr etiladi, gazeta va jumallar chiqariladi. Radio va televideniye eshittirishlarida ushbu til m'eyorlariga amal qilinadi. Yozma nutqda oʻzbek tilining imlo qoidalariga, gapirganda esa, adabiy talaffuz talablariga rioya etiladi. Adabiy nutq, uning yozma va og'zaki shakli me'yorlari bu tilda soʻzlovchilarning shaxsiy nutqlari va bu nutqlar yig'indisidan iborat bolgan umumiy me'yor sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy nutq madaniyatini egallashda tilga e'tibor, unga chinakam hurmat va muhabbat muhim rol oynaydi. Adabiy nutq me'yorlarini shunchaki qiziqish va u bilan nomigagina shugʻullanish bilan egallab boʻlmaydi. Buning uchun shaxsning saviyasi yuksalishi, bilimi oʻsishi ham talab etiladi. Shunga koʻra, adabiy nutq madaniyati nutqiy koʻnikma, nutqiy malaka natijasidir. Nutq madaniyati malakasiga adabiy til qoidalari, til boʻyicha bilimlar, tajriba orqali erishiladi. Nutq madaniyati malakasi egallangan bilim, oʻrganilgan qoidalar emas, balki kishining ularga oʻz nutqiy faoliyatida amal qilishga, qoʻllashga erisha olgan ko'nikmasidir. Korinadiki, nutq madaniyati aniq nutqiy faoliyat, aniq nutqiy amaldir. Nutq madaniyati va nutqiy faoliyat uzviy bogliq. Madaniy nutq madaniy nutqiy faoliyat mahsulidir. Shunday qilib, nutq madaniyatini egallash madaniy nutq koʻnikmasini hosil qilish demakdir.

Og'zaki va yozma nutq madaniyatining o'ziga xos qoidalari va me'yorlari bor. Ayniqsa, yozma nutq madaniyati me'yorlari uzoq asrlardan beri taraqqiy etib kelmoqda. Masalan, XV asrdayoq oʻzbek yozma nutqining me'yorlari boʻlgan. Buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy o'zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan oʻz davri yozma nutq madaniyati, nutq odobi rivojiga mislsiz hissa qoʻshgan.

Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlaming asarlari tilida Alisher Navoiy an'analari davom ettirilgan. Oʻtmish ajdodlarimizning oʻgzaki nutq madaniyati qanday boʻlganligi haqida ma'lumotlar yetib kelmagan. Biroq xalqimiz orasida ming yillar davomida yashab

kelayotgan. Yaxshi so'z - jon ozig'i, yomon so'z - bosh qozig'i, bug'doy noning bo'lmasa ham, bug'doy so'zing bo'lsin, oʻynab gapirsang ham, o'ylab gapir, har neni yemak - hayvonning ishi, har neni demak - nodonning ishi kabi maqol va hikmatlarning yashab kelayotganligi o'tmishda ham og'zaki nutq madaniyatiga katta e'tibor berilganligini ko'rsatadi.

Nutq madaniyati haqida gap ketganda, qaysi soʻz va qoʻshimchalarni qoʻllash toʻgri yoki notoʻgʻriligi, nutqimizda uchraydigan xatoliklar haqida soʻz boradi. Bu holat mal'um bir me'zonlar asosida baholanadi. Bu o'lchov adabiy nutq me'yorlaridir. Me'yor haqida olimlar koʻplab fikrlarni bayon etganlar. Masalan, S.I.Ojegov fikricha, me'yor - bu ijtimoiy taraqqiyot davomida shakllangan til birliklarining maqbulini tanlash natijasida vujudga kelgan, jamiyatga xizmat qiladigan foydali (toʻgri, ma'qul) til vositalari yigʻindisidir. B.N.Golovin esa" Me'yor - tilning xalq tomonidan oʻzaro yaxshi tushunish zarurati tufayli yaratilgan amaliy jihati. Bu zarurat tilning yagona shakliga erishish yo'Iida odamlarga biron variantni ma'qul koʻrish, boshqasidan voz kechish istagini tugʻdiradi. Jamiyatning ana shunday yagonalikka erishish yoʻlidagi intilishi bilan birgalikda til me'yori milliy adabiy tilda yuqori darajaga koʻtarilib, mustahkamlanib boradi" deb yozadi.

Umuman olganda, nutq har bir shaxs uchun qalbidagilarni chiqarish insonlarga nima demoqchi ekanligini ifodalab, tushuntirib berish qanchalik muhim boʻlsa, adabiy til me'yorlariga amal qilish xalqning birligini saqlash shunchalik muhim. Uning qoidalarini oʻrganish va undan foydalanish paytida amal qilish tilga, butun bir millatga hurmat koʻrsatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raupova Laylo, Nutq madaniyati /darslik/Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2019.
2. A.J.Omonturdiyev, SH.I.Abduraimova, O'zbek nutq madaniyati uslubiyati.

3.https://oyina.uz/uz/teahause/2120

4.Sh.O.Mamayoqubova. “Pedagogical conditions of professional development of higher Educational establishment teacher” Xalqaro so’z san’ati jurnali. ISSN 2181-9297Doi Journal 10.26739/2181-9297. 2022 5 son, 48 p

5.https:/fayllar.org/

6.https:/uz.m.wikipedia.org/